Манфаатлар тўқнашуви

Ортиқча маблағлар сарфланишига чек қўйилади

Бугунги кунда мамлакатимизда коррупциянинг олдини олиш борасида бир қатор ишлар олиб борилмоқда. Қурилиш-таъмирлаш лойиҳаларини экспертизадан ўтказишда ҳам шу масалага алоҳида эътибор қаратилиб, тизимни рақамлаштириш устувор йўналиш сифатида белгилаб олинди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Маъмурий ислоҳотлар доирасида қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги соҳасида давлат бошқарувини самарали ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида” 2023 йил 28 августдаги Фармонига асосан Қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги вазирлиги ҳузуридаги “Шаҳарсозлик ҳужжатларини экспертиза қилиш республика маркази” давлат муассасаси қайта ташкил этилди.

Давлатимиз раҳбари раислигида 2024 йил 29 январ куни ўтказилган йиғилишда ҳам объектларнинг лойиҳа-смета ҳужжатларини ишлаб чиқишдан бошлаб, фойдаланишгача бўлган барча жараёнларни назорат қилиш юзасидан янгича тизим жорий этиш вазифаси юклатилди. Топшириқ бажарилиб, “Шаффоф қурилиш” миллий ахборот тизимидаги “Лойиҳа-смета ҳужжатларини экспертизадан ўтказиш” электрон платформаси тўлиқ рақамлаштирилди.

Барча манфаатлар тўқнашувини бартараф этиш, коррупциянинг олдини олиш мақсадида, экспертизага тақдим этилган айрим тоифадаги лойиҳаларни кўриб чиқиш учун муайян бир ҳудудга йўналтириш функцияси бекор қилинди. Лойиҳаларни кўриб чиқувчи ҳудудни автоматлаштирилган дастурий таъминот томонидан мустақил равишда ҳудуднинг иш юкламасини инобатга олган ҳолда тасодифий танлаш тартиби жорий этилди. Шу билан бирга, “Шаффоф қурилиш” миллий ахборот тизимида ишга тушурилган махсус платформа (expertiza.mc.uz) тегишли идора ва ташкилотларнинг электрон платформаси билан интеграция қилинди.

Ушбу тадбирлар натижасида иш самарадорлиги ошиб, қоғоз шаклдаги лойиҳа ҳужжатлари билан ишлашга чек қўйилиб, жисмоний шахслар ва тадбиркорлик субъектларига масофадан туриб ҳужжат топшириш имконияти яратилди. Бу билан қарийб 400 тонна (8 миллиард сўмлик) қоғозни тежаш имконияти яратилди. 2025 йилнинг ўн бир ойида жами 1895 та лойиҳа-смета ҳужжатлари “Шаҳарсозлик ҳужжатларини экспертиза қилиш республика маркази” Сурхондарё ҳудудий бошқармасида кўриб чиқилиб, 1505 тасига ижобий ва 90 тасига салбий эксперт хулосалари тақдим этилиб, иш самарадорлиги қарийб 2 баробар ортди. Сифатсиз ва талабга жавоб бермайдиган 108 та ҳужжат аниқланган хато ва камчиликларини бартараф этиш учун буюртмачиларга қайтарилди.

Експертиза сифати оширилиб, ҳужжатларга ортиқча киритилган ишларни мақбуллаштириш ҳисобига 406,1 миллиард сўмлик харажат камайтирилди. Шундан бюджетдан 258,4 миллиард сўмлик маблағлар ортиқча сарфланишининг олди олиниб, бу маблағлардан бошқа мақсадларда фойдаланишга имконият яратилди.

Шерзод МАДУМАРОВ,
Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси бошқарма прокурори.

Умид ҚУРБОНОВ,
Сурхондарё вилояти прокуратураси бўлим бошлиғи.

Eng bebaho

Insoniyat qadim-qadimdan eng ko‘p intilib, eng ko‘p qadrlagan, eng ko‘p asrashga harakat qilgan ne’mat – bu tinchlikdir. U bor joyda odamlarning qalbi osoyishta, jamiyatning ruhi musaffo, davlatning poydevori mustahkam bo‘ladi. Tinchlik insonning o‘z hayotidan rozi bo‘lib yashashi, ertangi kuniga ishonch bilan boqishi, jamiyatda totuvlik va birdamlik hukm surishi demakdir. Bugungi kunda tinchlik masalasi yanada dolzarb bo‘lib, dunyoning turli hududlarida keskinliklar kuchayib borayotgan bir paytda bu ne’matning qadriga yetish har qachongidan ham muhimdir.

TINCHLIK NE’MATI: QALBGA OROM, ELGA RAVNAQ

Tinchlik – eng avvalo inson qalbidan boshlanadi. Qalbida osoyishtalik, mehr, bag‘rikenglik bo‘lgan inson boshqalar bilan ham totuv yashaydi. Ajdodlarimiz asrlar davomida “Qalb tinch bo‘lsa, atrof ham tinch bo‘ladi” degan hikmatni takrorlab kelganlar. Qalbning osoyishtaligi esa jamiyat osoyishtaligiga olib keladi. Bu jihatdan oila – tinchlikning eng birinchi maskani. Baxtli, totuv oila jamiyatning ham totuv bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Oilada hurmat bo‘lsa, yoshlar sog‘lom muhitda ulg‘ayadi, yoshlarning hayotga bo‘lgan ishonchi, maqsadga intilishi, tarbiyasi mustahkam bo‘ladi. Har bir oilaning ichki osoyishtaligi yurt tinchligining eng asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi. Mahalla esa tinchlik madaniyatining eng samarali maydonidir.

O‘zbek jamiyatining qadimiy instituti sifatida mahalla odamlar o‘rtasidagi hamjihatlik va mehr-oqibatni mustahkamlab kelmoqda. Mahallada qo‘shnichilik rishtalari mustahkam, kattaga hurmat, kichikka izzat, muhtojga ko‘mak qadrlanadi. Ana shu qadriyatlar tinchlikning ajralmas bo‘lagi bo‘lib xizmat qiladi. Bugungi O‘zbekistonda mahalla tizimi yanada mustahkamlanib, yoshlar tarbiyasi, ijtimoiy muammolarni hal etish, jinoyatchilikning oldini olish, insonlar o‘rtasidagi birdamlikni kuchaytirish kabi vazifalar dolzarb ahamiyat kasb etayotganligi bejiz emas. Bu jarayonlar jamiyatda tinchlik va totuvlik muhitini mustahkamlashga qaratilgan.

Tinchlik – taraqqiyotning yuragi. Hech bir davlat tinchliksiz taraqqiyot sari qadam tashlay olmaydi. Bugungi kunda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan barcha iqtisodiy islohotlar, loyihalar, yangi yo‘llar, maktablar, bog‘chalar, shifoxonalar, sanoat korxonalari, turizm markazlari – bularning barchasi tinchlik sharofatidandir. Hech bir tadbirkor notinch joyga sarmoya kiritmaydi, hech bir tadbirkor xavfsizlik bo‘lmagan joyda faoliyat yurita olmaydi. Demak, tinchlik iqtisodiyotning ko‘z ilg‘amaydigan, ammo eng muhim tayanchidir.

O‘zbekiston yoshlari bugungi kunda dunyoning turli nufuzli universitetlarida tahsil olishmoqda, turli xalqaro tanlovlarda g‘olib bo‘lishmoqda, zamonaviy texnologiyalarni o‘rganishmoqda, yangi startaplar va innovatsion g‘oyalar bilan chiqishmoqda. Ularning bunday yutuqlari uchun asos bo‘lgan eng katta imkoniyat tinch va barqaror hayotdir. Tinchlik ularga ilm olish, erkin fikrlash, intilish, yuksak marralarni ko‘zlash imkoniyatini beradi. Shu bois yoshlar orasida tinchlikka sadoqat, Vatanga muhabbat, jamiyat oldidagi mas’uliyat, bag‘rikenglik fazilatlarini shakllantirish osoyishtalikni asrashning eng asosiy bosqichidir.

Bugungi axborot asrida, ijtimoiy tarmoqlar ta’siri kuchayib borayotgan davrda tinchlikni asrash yanada mas’uliyatli yuk bo‘lib qoldi. Axborot oqimi qanchalik tez bo‘lsa, u bilan birga xavf-xatarlar ham shunchalik tez tarqalishi mumkin. Yolg‘on xabarlar, g‘arazli chaqiriqlar, radikal fikrlarning jamiyat osoyishtaligiga putur yetkazish ehtimoli bor. Shunday bir pallada odamlarning axborot madaniyatini oshirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, har bir xabarni tekshirib ko‘rishga o‘rganish – tinchlik madaniyatining ajralmas qismiga aylanmoqda. Chunki axborot xurujlariga beriluvchan, har qanday fikrga ishonib ketadigan jamiyatda turli ziddiyatlarning paydo bo‘lishi osonlashadi.

Tinchlikni mustahkamlashda ma’naviyatning o‘rni beqiyosdir. Ma’naviyatli, ilmli, fahm-farosati keng, tarixini biladigan, qadriyatlarini hurmat qiladigan, bag‘rikeng jamiyat hech qachon beparvo bo‘lmaydi. Ma’naviy jihatdan boy jamiyatning farzandlari ham maqsadli, mas’uliyatli, Vatan ravnaqiga intiluvchan bo‘ladi. Ota-bobolarimizdan meros bo‘lib qolgan ilm, hikmat va adabiyotdagi tinchlik saboqlari bugun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Buyuk allomalarimiz, xususan, Surxon diyoridan yetishib chiqqan Termiziy allomalarimizning ibratli hayot yo‘li, bebaho ma’naviy merosida insonlar o‘rtasidagi totuvlik, sabr, kechirimlilik, yaxshilik qilish, boshqalarga zarar yetkazmaslik bo‘yicha berilgan ko‘rsatmalar tinch jamiyatning asosiy poydevoridir. Bu tamoyillar yoshlar tarbiyasida, ta’lim tizimida, oilada keng qo‘llanganda jamiyatda bag‘rikenglik, o‘zaro hurmat, tinchlik muhiti mustahkamlanadi.

Bugungi O‘zbekiston barqaror rivojlanayotgan davlatlar qatorida o‘z o‘rniga ega bo‘lib bormoqda. Mamlakatimizda har bir islohotning, har bir loyihaning zamirida tinchlikni asrash va mustahkamlash maqsadi yotadi. Chunki tinchlik bo‘lmasa, eng katta loyihalar ham o‘z samarasini bermaydi. Bugun xalqimizning ertangi kunga bo‘lgan ishonchi, farovon hayotga intilishi, yoshlarning ilmga chanqoqligi, ijtimoiy hayotdagi faollik – bularning barchasi tinch hayotning mevasidir. Shu sababli har bir fuqaro tinchlikni o‘zining shaxsiy burchi deb bilishi kerak. Har bir inson mahallasidagi, ish joyidagi, oilasidagi muhitni tinchlikka xizmat qiladigan tarzda asrab-avaylashi zarur. Tinchlik beparvolikka dosh bermaydi, u doimo hushyorlikni, mas’uliyatni, hamjihatlikni, mehr-oqibatni talab qiladi. Jamiyat a’zolari bir-birini tushunib, qo‘llab-quvvatlab yashasa, har qanday og‘ir vaziyatdan ham yengil o‘tiladi. Shuning uchun tinchlik madaniyatini shakllantirish bugunning eng dolzarb vazifalaridan biridir.

Umuman aytganda, tinchlik – bu qalbga orom beruvchi, elga ravnaq ulashuvchi, davlatga qudrat bag‘ishlovchi bebaho ne’matdir. Tinchlikka tayanib yashagan xalqning kelajagi porloq, taraqqiyoti barqaror, farzandlari baxtiyor bo‘ladi. Shu bois tinchlikni asrash, uning qadriga yetish, uni kelajak avlodlarga sog‘-salomat holatda topshirish – barchamizning sharafli, eng oliy burchimizdir.

Timur MUXAMADIYEV,
Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi.

«Ўзбекистоннинг энг янги тарихи» дарслиги яратилди

Мамлакатимиз энг янги тарихининг муҳим воқеалари ва саналарига доир қатор илмий, ўқув-услубий ва фундаментал асарлар яратиш, айниқса, миллий давлатчилигимизнинг вужудга келиши ва тараққиётига оид илмий ва илмий-оммабоп, ўқув-методик ва маърифий адабиётлар тайёрлаш, чоп этиш, шу орқали ёшларнинг мамлакатимиз тарихи ҳақидаги билимларини янада бойитиш энг муҳим вазифалардан, десак хато бўлмайди.

Тарихчи олим Бўри Қодиров муаллифлигида нашр этилган “Ўзбекистоннинг энг янги тарихи” номли олий таълим муассасаларининг номутахассис таълим йўналишлари учун дарслиги, шунингдек, “Ўзбекистоннинг энг янги тарихидан изоҳли луғат” ҳамда “Ўзбекистоннинг энг янги тарихи фанидан мустақил таълимни ташкил этиш” ўқув-услубий қўлланмалари бу борада ўзининг бир қатор хусусиятлари билан катта аҳамиятга эга.

Муаллиф томонидан “Ўзбекистоннинг энг янги тарихи” дарслиги ўқув дастурларда кўрсатилган мавзулар асосида яратилган бўлиб, унда Ўзбекистоннинг мустақилликка эришиш жараёнлари, истиқлол йилларида юртимизда демократик-ҳуқуқий давлатнинг барпо қилиниши, мамлакатда амалга оширилган ижтимоий-иқтисодий ва маънавий-маърифий ишлар, шунингдек, мамлакатимизнинг тинчликсевар ташқи сиёсати масалалари янги материаллар асосида бойитилган. Дарсликда Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси ва янгиланган Конституциясининг ўзига хос томонлари ва мазмун-моҳиятига ҳам катта аҳамият қаратилган.

Дарсликда ҳар бир мавзу охирида таянч сўзлар, мавзу юзасидан савол ва топшириқлар, фойдаланилган адабиётлар рўйхати келтирилган. Китобда шунингдек, бошқа дарсликларда учрамайдиган Ўзбекистоннинг мустақиллик арафаси ва мустақиллик йиллардаги, Янги Ўзбекистон даврида рўй берган муҳим тарихий саналар кетма-кетлик асосида келтириб ўтилган.

“Ўзбекистоннинг энг янги тарихи” китобининг ўзга хос жиҳатларидан яна бири мамлакатимизнинг бугунги тараққиёт даврида юз бераётган инқилобий ўзгаришларнинг кўлами ва шиддати, уларнинг халқимиз, ҳар бир шахс ҳаётидаги ўрни ва таъсири турли мисолларда ёритиб берилгани билан боғликдир. Айниқса, келажагимиз бўлган ёш авлодни ўз ватанига меҳр-муҳаббат руҳида тарбиялаш ва уларда юксак маънавий фазилатларни шакллантиришда, миллий онг ва соғлом фикр уйғотишда, Ватан, халқ ва истиқлол тақдири учун ғоявий курашувчанлик руҳида тарбиялашда, шунингдек, юксак маънавиятли комил инсон бўлиб шаклланишида ушбу нашрларнинг аҳамияти катта. Шу билан бир қаторда, бу фан халқимиз тарихини ҳаққоний тасвирловчи, акс эттирувчи кўзгу, ижтимоий, сиёсий, тарбиявий, маънавий сабоқлар мажмуасидир, десак хато бўлмайди.

Б.Қодиров томонидан тайёрланган китоблардан яна бири – “Ўзбекистоннинг энг янги тарихи”дан изоҳли луғат” нашридир. Ушбу изоҳли луғат кенг қамровли бўлиб, асосан шу пайтга қадар Ўзбекистоннинг энг янги тарихи бўйича яратилган дарслик, ўқув қўлланмалар, илмий-тадқиқот ишлари ва тарихий асарларда учрайдиган атамаларнинг изоҳига бағишланган. Мазкур луғат фан дастурларида қамраб олинган мавзуларга ҳам таянганини алоҳида қайд этмоқ лозим. Луғатдан ўрин олган ҳар бир атама ўтмишда ва тарихий манбаларда қандай ёзилганига қараб алифбо тартибда, сўзларнинг этимологияси эса қавс ичида бериб ўтилган. Бу эса, ўқувчида Ўзбекистоннинг энг янги тарихида дуч келадиган атамаларни мукаммал билиш имконини беради.

Б.Қодиров томонидан тайёрланган “Ўзбекистоннинг энг янги тарихи” фанидан мустақил таълимни ташкил этиш” ўқув-услубий қўлланмаси “Ўзбекистоннинг энг янги тарихи” фанидан талабалар мустақил таълимини ташкил қилиш” намунавий ва ишчи ўқув режаларига мос ҳолда ишлаб чиқилган бўлиб, у олий таълим жараёнида мустақил таълим учун ажратилган мавзуларни талабалар томонидан янада пухта ўзлаштиришлари учун ёрдамчи манба вазифасини бажариши билан катта аҳамият касб этади.

Қўлланмада талабалар мустақил ишларини ташкил қилиш жараёнида маълум мавзу бўйича маъруза матни, реферат, курс иши, слайд, кўргазмали воситалардан фойдаланиш ва график ишларини бажариш, макет, модел ва бадиий асарлар устида ишлаш, амалиётдаги мавжуд муаммонинг ечимини топиш, тест, мунозарали саволлар ва топшириқлар тайёрлаш, илмий мақола, тезислар ва амалий мазмундаги ностандарт масалаларни ечиш ҳамда ижодий ишлаш масалаларини бажаришга эътибор қаратилган.

Шунингдек, “Ўзбекистоннинг энг янги тарихи” фанидан мустақил таълимни ташкил этиш” бўйича тайёрланган ўқув-услубий қўлланмада мустақил таълимни тўғри ташкил қилиш ва талабалар билан биргаликдаги фаолият жараёнида муваффақиятли натижаларга эга бўлиш раҳбар (ўқитувчи)дан нафақат ўзи ўтаётган фан юзасидан чуқур билимга эга бўлиши, балки айни вақтда талабалар билан ишни тўғри ташкил қилиш, ҳар бир талабанинг иқтидори ва қобилиятини имкон қадар ҳисобга олган ҳолда ёндашишига алоҳида эътибор қаратилган. Қўлланмада шунингдек, раҳбар (ўқитувчи) фан (курс) юзасидан маъруза ва семинар машғулотлари жараёнида турли педагогик технологиялар ва интерактив услубларни қўллаган ҳолда ҳар бир талабанинг ўзига хос хислатларини аниқлаб, мустақил таълим бўйича маслаҳат дарсларида талабаларга тўғри йўналиш бера олиши ва мустақил таълимни ташкил қилишдан кўзланган мақсадга эриша олиши масалалари очиб берилган.

Бир сўз билан айтганда, “Ўзбекистоннинг энг янги тарихи” дарслиги ёнида “Ўзбекистоннинг энг янги тарихидан изоҳли луғат” ҳамда “Ўзбекистоннинг энг янги тарихи” фанидан мустақил таълимни ташкил этиш” ўқув-услубий қўлланмасининг яратилгани Ватанимизнинг энг янги тарихи ўқувчи ва талабалар томонидан чуқур ва пухта ўзлаштирилишида муҳим манба вазифасини бажаради.

Б.Қодировнинг Ўзбекистоннинг энг янги тарихига оид янги ўқув қўлланмалари кўп йиллик илмий изланишлари самараси ўлароқ юзага келган бўлиб, уларнинг ҳар бири олий таълим муассасалари талабалари, тадқиқотчи олим ва кенг китобхонлар учун мўлжалланган.

Шуҳрат ҲАЙИТОВ,
филология фанлари доктори,
ЎзА.

Жума – йўл ҳаракати қоидалари тарғиботи куни

Профилактик тадбир

Музработ туманида жойлашган ДХХ Чегара қўшинларига қарашли ҳарбий қисм бўлинмаларининг бирида йўл ҳаракати хавфсизлиги гуруҳи катта инспектори билан ҳамкорликда профилактик тадбир ўтказилди.

Тарғибот тадбири давомида йўлларда содир бўлаётган йўл-транспорт ҳодисаларининг келиб чиқиш сабаблари ҳамда соҳага оид қонунчиликдаги ўзгаришлар хусусида сўз юритилди. Тўпланганларга йўл-транспорт ҳодисалари акс этган махсус видеолавҳа намойиш этилди.

Тадбирда ҳарбий хизматчилар ўзларини қизиқтирган саволлари билан фаол иштирок этишди.

Майор Ф.ШЕРАЛИЕВ,
ДХХ Чегара қўшинлари зобити.

Bugunning mavzui

Murosasiz munosabat shakllantiriladi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari mustaqilligini ta’minlash hamda faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-147-son, qarori 2025-yil 21-aprelda qabul qilingan edi.

Qarorga ko‘ra, davlat organlari va tashkilotlaridagi korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalarining ustuvor vazifalari etib quyidagilar belgilandi. Jumladan:

korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va ularning oldini olish, ularga imkon beruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish;

davlat xizmatlarini ko‘rsatishda korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish, maishiy korrupsiyaning oldini olish, shu jumladan, raqamlashtirish, byurokratiyani qisqartirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari o‘z faoliyatida bevosita tashkilotning birinchi rahbariga bo‘ysunadi va uning oldida hisobdor bo‘ladi.

V.NAZAROV,
Bandixon tumani adliya bo‘limi boshlig‘i.

Мамлакатимиз миқёсида

Коррупцияга қарши курашнинг янги даври бошланмоқда

(Бошланиши 1-бетда.)

Хусусан, Transparency International халқаро нодавлат ташкилоти томонидан Коррупцияни қабул қилиш индексининг 2024 йил натижаларига кўра, мамлакатимиз 32 балл тўплаб, 2017 йилги 157 ўриндан 121 ўринга кўтарилди. Қолаверса, коррупцияни олдини олиш ва унга қарши курашиш соҳасида олиб борилаётган ишлар натижадорлигини оширишда ижтимоий масалаларга оид очиқ маълумотлар кўлами янада кенгайганлиги, улардан тўсиқларсиз фойдаланиш имкониятлари яратилганлиги ҳам муҳим аҳамият касб этмоқда. Жумладан, юртимизда коррупцияни олдини олиш ва унга қарши курашиш бўйича аниқ тизим яратилиб, парламент палаталарида масъул қўмиталар, Коррупцияга қарши курашиш бўйича миллий кенгаш ва алоҳида Агентлик фаолияти йўлга қўйилди.

Энг муҳими, Президентимизнинг сиёсий иродалари билан жамиятда коррупция муаммосини жамоатчилик муҳокамасига олиб чиқадиган очиқ тизим, очиқ муҳит яратилди. Айниқса, оммавий ахборот воситаларининг бу борадаги фаолияти жонланиб, илгари ёпиқ бўлган коррупция мавзуси журналистлар томонидан баралла фикр билдириб ёритиладиган бўлди.

Албатта, эришилган натижалар ўзимизники, аммо бугун Янги Ўзбекистонни барпо этишдек юксак ғояни амалга оширишда бу борада ҳали қилиниши зарур бўлган вазифалар борлиги ҳам ҳеч кимга сир эмас. Энг муҳими, бу масала доимий равишда давлатимиз раҳбари эътиборида бўлиб келаётганлигидир.

Ҳеч шубҳасиз, Президентимизнинг халқ вакиллари билан биргаликда Коррупцияга қарши курашиш миллий кенгашининг кенгайтирилган йиғилишида иштирок этганлиги бу Ўзбекистон тарихида коррупцияга қарши курашиш борасида катта бир тарихий воқелик бўлди. Сабаби, йиғилишда юртимизда коррупциядан холи муҳит яратиш бўйича амалга оширилаётган ишларга танқидий баҳо берилиб, Президентимиз томонидан келгусида ҳал этилиши лозим бўлган энг муҳим вазифалар белгилаб берилди. Жумладан, давлат раҳбари томонидан Коррупцияга қарши курашиш ҳудудий кенгашлари таркибиётўлиқ янгиланиб, уларга олдингидек вилоят ҳокимлари эмас, халқ депутатлари вилоят Кенгаши раислари раҳбарлик қилиши белгиланди.

Эндиликда, ушбу ҳудудий кенгашлар пастки бўғингача тушиб, коррупцияни келтириб чиқарадиган омилларни аниқлайди, уларга қандай барҳам бериш керак, қайси қонунни ўзгартириш зарур деган саволларга жавоб топиб, ҳар чоракда камида битта соҳада коррупциявий омилларни бартараф этиш, қонун устуворлиги, жазо муқаррарлигини таъминлаш бўйича Миллий кенгашга таклиф киритиб боради. Шунингдек, жорий йилда барча хизматлар бўйича давлат идоралари ва аҳоли ўртасидаги муносабатларни туман кесимида баҳолайдиган тизим ишга туширилади. Натижада, кўрсатилган сервис сифатига аҳолининг ўзи баҳо беради, энг ёмон деб топилган идора раҳбарлари хулоса чиқаради. Аҳоли томонидан энг кўп мурожаат билдириладиган сув, газ, электрга уланиш, субсидия, пенсия ва моддий ёрдам олиш каби йўналишларда онлайн жавоб оладиган тизим ишга туширилади. Бу эса фуқароларни идорама-идора юришдек ортиқча оворагарчиликлардан қутқаради.

Президентимиз томонидан билдирилган яна бир муҳим янгилик, бундан буён секторлар фаолияти билан прокурор, ички ишлар ва солиқ органлари шуғулланмаслигидир. Уларнинг ўрнига эндиликда Бош вазир ўринбосарлари ўзига тегишли соҳалар билан ўз кучи ва тизими билан шуғулланиши белгиланди. Ҳеч шубҳасиз айтиш мумкинки, ушбу ташаббус ҳам ўз ўрнида амалга оширилмоқда. Боиси, давлатимиз раҳбари айтиб ўтганидек, прокурор, ички ишлар ва солиқ органлари ходимлари асосий иш вақтларини секторларда ўтказиши, ушбу тизим билан боғлиқ айрим масалалар ўз вақтида ечилмаслик ҳолатларини ҳам юзага келтираётган эди.

Аммо айтиб ўтиш керакки, саккиз йил олдин ушбу идораларнинг секторлар кесимида бириктирилиши, ҳудудлар инфратузилмасини яхшилаш, аҳоли муаммоларини ҳал этиш, ижтимоий-иқтисодий соҳаларни ривожлантириш, энг муҳими, бир вақтлар кайфиятига қараб фуқаролар мурожаатини қабул қиладиган прокурор, ички ишлар ходими ва солиқчиларни пастга халқ ичига кириб ишлашга ўргатди. Саккиз йил бу кичик муддат эмас, бу вақт оралиғида прокурор, ички ишлар ва солиқчилар маҳаллама-маҳалла, кўчама-кўча, уйма-уй юриб, фуқаролар билан қандай мулоқот қилиш кераклиги, ўз тизимида пастки бўғинда қандай муаммолар мавжуд эканлигини ўрганишди. Қолаверса, эндиликда ҳар бир маҳаллада янги тизим "маҳалла еттилиги" фаолияти йўлга қўйилди. Ушбу еттилик орасида ҳам бу тизим ходимларининг борлиги бошланган ислоҳотлар изчил давом эттирилишини таъминлашга хизмат қилади.

Умуман олганда, йил якунигача сунъий интеллект ёрдамида давлат харидларида қонунга зид ҳолатларни аниқлаш ва олдини олиш бўйича электрон тизимнинг ишга туширилиши, кибер коррупцияга қарши самарали курашиш бўйича мустаҳкам ҳуқуқий базанинг яратилиши буларнинг барчаси яқин вақт ичида мамлакатимизда коррупцияга қарши курашиш борасида самарали натижаларга эришиш имконини беради.

Гулнорахон АБДУВОҲИДОВА,
Олий Мажлис Қонунчилик палатасининг Меҳнат, соғлиқни сақлаш ва ижтимоий масалалар қўмитаси аъзоси.
ЎзА.

KORRUPSIYA: MOHIYATI VA SABABLARI

yoxud uni oldini olishning mexanizmlari

Korrupsiya bugungi globallashuv sharoitida davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa ijtimoiy sohalar rivojiga eng katta to'siqlardan biri hisoblanadi. U faqat moliyaviy zarar yetkazmaydi, balki jamiyatning davlatga bo'lgan ishonchi, ijtimoiy adolat, qonun ustuvorligi va inson kapitali sifatiga putur yetkazadi. Shu bois korrupsiyaga qarshi kurash nafaqat huquqiy, balki siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy masala hamdir.

"Korrupsiya" lotincha corruptio – "buzilish", "poraga berilish" degan ma'noni anglatadi. Ilmiy nuqtai nazardan, korrupsiya mansab vakolatlaridan shaxsiy manfaat yo'lida qonunga xilof foydalanish, pora olish, pora berish, ta'magirlik, mansabni suiste'mol qilish kabi illatlar majmuasidir.

So'nggi yillarda O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash borasida katta islohotlar amalga oshirildi:

Korrupsiyaga qarshi kurash agentligi tashkil etildi.

Davlat xaridlari "E-auksion", "E-xarid", "Openbudjet" orqali o'tkazilmoqda.

Maktab, bog'cha, oliygoh, tibbiyot tizimlarida shaffoflik kuchaymoqda.

Raqamli xizmatlar soni 300 tadan oshdi.

Kadrlar tanlovlari ochiq va ballik tizimga o'tkazilmoqda.

Bu islohotlar korrupsiya xavfini kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Korrupsiya – davlatning eng katta dushmani. Uni faqat jazolash orqali emas, balki tizimli profilaktika, raqamlashtirish, ma'rifat, shaffoflik va jamiyat faolligi orqali kamaytirish mumkin.

Korrupsiyasiz jamiyat – adolatli, taraqqiy etgan va raqobatbardosh davlatning kafolatidir.

O.ALLABERDIYEV,
tuman adliya bo'limi boshlig'i.

Замондошларимиз

МЕҲНАТДАН КЕЛСА БОЙЛИК...

Она замин тўрт фасл узра ранго-ранг тусга кириб, ажиб жилоси билан кишини ўзига ром этади.

Олтин куз... ўсимлик дунёсини олтин сарпоси билан сийлаган бу фасл ўз гўзаллигини борлиққа намойиш этиб, дилларга ажиб бир тароват улашмоқда. Борлиқ узра куз нафаси... кўкка бўй чўзган дарахтлар бағридан уфуриб эсаётган куз ҳавосининг илиқ тафтидан тин олган дов-дарахтлар биринкетин яшил либосини ечиб, зарҳал чопонини кия бошлаган.

Шундай бўлсада, ёзнинг иссиқ ҳарорати ўз ўрнини бўшатишдан бош тортгандек гўё, кундузлари ўз ҳукмронлигини намойиш этишга чоғланган. Томорқадаги анорзор пайкалларида анор дарахти шохчаларида қолган майда-майда анорларни териб бироз толиққан Шермат бобо ажин тушган юзларидан оқаётган тер томчиларини эгнидаги рўмолчасига артганча пешонасига оловдек урилаётган иссиқ тафтидан беҳузур бўлиб, кекса тут соясидан паноҳ излади. Супача устига солинган алвон гулли кўрпачага чўзилиб ёнбош ташлаганча, бошидаги терга намиқиб кетган дўпписини ёстиқ ёнига қўяр экан, ўзингга шукр дея лаблари пичирлади. Кўзини юмганча хаёл сурди. Бехосдан юзига келиб урилган баркашдек тут барги Шермат бобо хаёлини бузди. Тут япроғини қўлига олиб, мовий осмонга термулганча, шодадек тизилган тут баргларига назар ташлади.

Тарвақайлаб кетган бу тут дарахти ҳам ўзи сингари анчайин қариб қолган. Бироқ бақувватлашиб кетган танаси, новдалари кенгқулоч ёйиб, каттагина супасининг деярли ҳамма жойига қуюқ соя беради. Бу йилги саратон иссиғини ҳам чол-кампир шу дарахт соясида ўтказди. Шермат бобо бу тут дарахтини қадрлайди. Невараларига "Соябон тут" деб таърифлайди. Неча йилдирки, шу хонадон аъзоларига беминнат хизматини аямасдан салқин соя улашиб келади. Қалин танасининг пўстлоқлари йил сайин катталашиб, арчилган танаси орасидан силлиқ йўғон томири бўртганича яққол кўриниб туради.

Шермат ота супа четида турган бир челак анорлардан бирини қўлига олиб пичоқ билан иккига бўлди. Ярим бўлагини қўлига олар экан, кафтини бир ҳовуч анор доначаларига тўлдирди, доначаларнинг қирмизи ранги кўзни қамаштиради. -Оллоҳнинг мўъжизаси, етказганга шукр раббим, дея пичирлади. Мазаси ширин, есангиз танангиз яйрайди, иштаҳангизни очади.

Дарвоқе, воҳанинг "Шеробод анори" довруғи республикамизнинг барча вилоятлари аҳолисига анчайин таниш. Негаки, шерободликлар кўп йиллардан буён анор етиштиришнинг ҳадисини олган уста боғбонлардан десак, асло янглишмаймиз. Улар томонидан етиштирилаётган сара анорлар бугун нафақат юртимиз бозорлари расталарини тўлдирмоқда, қолаверса, ҳамдўстлик ва хориж мамлакатларига ҳам экспорт қилинмоқда.

Даҳаналиклар ҳам ўзлари етиштирган ширидан-шакар анорлари билан эл маъмурчилигига муносиб ҳисса қўшиб келишмоқда. Шермат бобо ҳам ҳовлисидаги томорқадан ҳамиша унумли фойдаланади. Олма, ўрик, шафтоли, анор, гилос сингари турли хил мевали дарахтлари бор. Айниқса, етти юз туп анор кўчатларига меҳр бериб парваришлаб ҳар йили мўмайгина даромад олади. Бу йил ҳам ҳосил чўғи чакки бўлмади. Анорзор пайкалларида кўзни қувонтириб турган донаси бир кило, бир ярим кило тош босадиган анорлар беихтиёр диққатингизни тортиши шубҳасиз. Офтоб нурларида янада жиловланаётган "Бўри тиш" навли анорларнинг шунга яраша харидорлари ҳам кўп бўлади. Шермат бобо анорзорларига Шаҳрисабзнинг "Варганза" қишлоғидан келган харидорларни маҳлиё қилган сара анорлар ўзаро келишув асосида бир зумда сотилди. 12 тонна анордан келган даромад-буромад ҳам шунга яраша бўлиб, рўзғор ғазнасини уч-тўрт баровар бойитди.

Даҳана қишлоғида яшовчи Шермат бобо Саттаров хонадонида бўлдим. Илиқ табассум билан қарши олган отахоннинг забардаст қадоқ қўллари, буғдойранг юзларидаги ажин унинг узоқ ўтмишидан ҳикоя қилиб тургандек гўё.

-Инсон меҳнати билан тирик. Худога шукурким, суягим меҳнатда қотди. Ана-пана ишларни иш демайман. Чунки одам қанчалик ишласа, қони юришиб, шунчалик соғлом ва тетик бўлади, - дейди отахон.

Ҳар бир дарахтни фарзанд сингари парвариш ва тарбияни талаб этишини бот-бот таъкидлади. Гурунгимиз давомида анорчилик соҳасининг сир-синоатларини обдон тушунтирди. Ўзига яраша меҳнати оғирлигини, агротехникаси, ишлов бериш усуллари ўз вақтида бажарилмаса, кутилган ҳосилни олиб бўлмаслигини тўлқинланиб сўзлаб берди. Суҳбатимиз сўнгида болалик хотираларини ҳам эсга олди. Отаси раҳматлидан деҳқончилик сирларини пухта ўрганлигини, бир замонлар тоғ биқинида катта боғ бўлганлиги, қийинчилик йиллари ўша боғдан кун кўриб рўзғор тебратганлигини гоҳо куйиниб, гоҳо суйиниб ҳикоя қилди.

-Болам, анорнинг ичидаги донаси нечта бўлса, шунча дардга даво, яна бир гап анорнинг пўсти ич кетишга шифо, гули қон босимини туширади буни эсдан чиқарма, - дейди отахон.

-Боғбонмисиз, табибмисиз? – дея куламан, отахонга юзланиб.

-Эҳ, болам 25 йилдан буён анорчилик билан шуғулланаман, қандай билмай бу мўъжизали мевали дарахтнинг шифосини. Қадим замонлардан бери анорнинг довруғи етти иқлимга машҳур, - дейди у.

Дарҳақиқат, отахон таъкидлаганидек, анор ер юзидаги энг фойдали мевалардан бири ҳисобланади. У қадим замонлардан бери севиб истеъмол қилинади. Унинг таркибида мутахассисларнинг фикрича, турли туман витаминлар, бириктирувчи тўқималар ва шунингдек, микроэлементлар мавжуд экан.

Ҳаёт синовларида тобланиб юзларида ажинлар из қолдирган отахон суҳбатини мароқ билан тинглаб, у яратган анорзор боғларни томоша қилар эканман, яна бир бор боғбон меҳнатига тасанно айтдим. 78 ёшни қаршилаган қадоқ қўллари меҳнатда қотган кексаликка ҳали ҳам чап бериб, юрт равнақи йўлида ҳормай-толмай меҳнат қилиб, маъмурчиликка ҳисса қўшаётган Шермат ота билан хайрлашаётган чоғим Даҳана кенгликлари узра қиялаб ботиб, бораётган қуёшнинг қирмизи нурлари борлиқни чулғаган эди.

Сайдулла ШОБЕРДИЕВ,
ДХХ Чегара қўшинлари хизматчиси.



«Biz zo'ravonlikka qarshimiz»

Maktablarda noyabr – "Biz z'oravonlikka qarshimiz" oyligi munosabati bilan o'quvchilar ishtirokida turli xil davra suhbatlari, aksiyalar, rasmlar ko'rik-tanlovlari hamda treninglar o'tkazilib kelinmoqda. Jumladan, 19-maktabda ham oylik jarayonida o'quvdargohining 1-4-sinf o'quvchilari bilan shu mavzuda davra suhbati bo'lib o'tdi.

Davra suhbatida "Zo'ravonlik va unung turlari, sinfdagi muhitni aniqlash, do'st tanlash, do'stni bilasizmi?" kabi savollarga javoblar topildi. O'quvchilar bilan birgalikda sinfdagi muhitni aniqlash uchun "Mening do'stim kim?" mavzusida proyektiv metodika o'tkazildi. Maqsad: o'quvchilarning do'stlik haqidagi fikrlari, tasavvurlarini kengaytirish hamda do'sti haqida ijobiy, salbiy fikrlarni aniqlash, sinfda zo'ravonlikning oldini olish edi. Rasmlar chizib bo'lingandan keyin o'quvchi rasmga qarab do'stining yaxshi va yomon tomonlarini ochib berdi. Metodika yakuniga ko'ra xulosa qiladigan bo'lsak, rasmdagi salbiy tomonini bilgan o'quvchi shu xislatini yuqotishi yoki aksincha, ijobiy tomonini yuksaltirishi kerak. Do'stlik va ijobiy muloqot ko'nikmalarini shakllantirish uchun o'quvchilarga savollar berildi. Sinfning ijobiy muloqot qoidalari haqida ham tushuntirildi. Shundan so'ng har bir o'quvchi o'zining yaxshi do'st bo'lishi haqidagi 3 ta qoidani yozib, izohlab berdi.

Davra suhbati mazmunli va qiziqarli bo'lib o'tdi. Agar sinflarda o'quvchilar bilan mana shunday davra suhbatlari, savol-javoblar o'tkazilsa, kerakli metodlarni qo'llay bilsak, o'quvchining xulq-atvori vaqtida aniqlanib, sinfdagi muhitni o'rganish ishlari olib borilsa, maktablarda zo'ravonlik turlari kam uchragan bo'lar edi.

Gulnora MAMATQULOVA,
19-umumta`lim maktabining amaliyotchi-psixologi.

Ўз аризасига кўра...

(Ҳикоя)

Қинғир ишнинг қийиғи қирқ йилдан кейин ҳам чиқади.

Халқ мақоли

Жобир Аминович қарийб тўрт соат давом этган йиғилишдан чарчаб, ҳориб, кайфияти бузилган ҳолда чиқди. Умри бино бўлиб бунақанги гап эшитмаган, изза бўлмаганди. Тумонат одамлар олдида укаси тенги ҳокимдан гап эшитиш алам қилади, албатта. Шу йилгача кўп жойларда масъул вазифаларда ишлаган, аммо ҳеч ким уни бу қадар очиқчасига танқид қилмаган, ерга урмаганди.

Хизмат машинасида бекорчилигидан мудраб ўтирган ҳайдовчисига ҳайда, дегандай имо қилди-ю, яна хаёлларга берилди. Очиғи, инсоф билан айтганда, олдингги ҳоким билан апоқ-чапоқ эди. Кўп танишларини ишга жойлаб қўйишда ҳам жонбозлик кўрсатарди. Албатта, ишга жойлашишнинг вазифага кўтарилишнинг ўзи бўлмайди. Мушук бекорга офтобга чиқмайди, сендан угина, мендан бугина деганларидек, бундан у унумли фойдаланиб қоларди. Дейлик, бирорта ташкилот раҳбарининг ўрни бўшаса, дарҳол ҳоким Жобир Аминовични телефон орқали чақириб олар, кадр масаласида маслаҳат қиларди. Бу борада унинг олдига тушадигани бўлмасди. Дарҳол ҳокимга олдиндан режалаштириб юрган номзодини айтар, ҳатто қанча қуруғидан олиб келишини ҳам қистириб ўтарди. Ўша куннинг ўзида Жобир Аминович ўзи топган бўлажак раҳбари билан нархини келишиб оларди. Албатта, бунда у энг аввало, ўзини манфаатини биринчи ўринга қўярди. Агар номзоддан беш минг кўкидан олса, нари борса уч мингини ҳокимга берар, бундан иккаласи ҳам манфаатдор бўларди. Эҳе, бундай ишларни неча бор қилмайди, дейсиз.

Бундан ташқари туманда нима кўп, уй-жой оламан, ер олиб фермерлик қиламан деган одам кўп. Бундай пайтда ҳам Жобирбойнинг омади чопарди. Кимгадир чорва учун, кимгадир боғ қилиш учун, яна кимгадир тадбиркорлик қилиш учун ер керак. Бу ишларнинг бошида албатта, у турарди. Тан олиш керак, шу ишлари орқали пойтахтдан бир эмас иккита, Самарқанддан учта уй сотиб олди. Ҳовлисида эса иккита "Ласетти" машинаси турибди. Биттасини катта ўғли минса, иккинчисини куёвига бериб қўйибди. Куёвни пайғамбарлар ҳам сийлаган деганларидек, унга ҳам ёрдамлашиб турмаса бўлмайди. Ҳар ҳолда орган ходими.

Ҳозирги вазифасига ўтгунча озмунча қийналдими? Ошнаси бўлган ҳоким рози бўлса-да, вилоятдагиларни кўндириш қийин кечди. Аммо ҳал бўлмайдиган ишнинг ўзи йўқ экан. Керакли одамларни топиб, бир амаллаб муаммони ҳал қилишди. Лекин анча қимматга тушди. Бош ёрилса, дўппи остида деганларидек, бир амаллаб кетган харажатларининг ўрнини қоплаш керак. Бунинг йўлини ҳам у яхши биларди. Ташкилотга бошлиқ бўлган куннинг ўзидаёқ катта йиғилиш чақирди. Ташкилотда қатъий тартиб бўлишини, масъул вазифаларда фақат олий маълумотли кадрлар ишлаши лозимлигини, ишга олиш фақат ўзининг вакалатига киришини алоҳида таъкидлади.

Эртаси куниёқ ёрдамчи ўринбосарларини алмаштирди. Кадрлар бўлимига шофёрининг хотинини жойлаштирди. Кадрларни ишга олиш билан ўзи шуғуллана бошлади. Вазифаларга ставка белгиланди. Бўлим мудири вазифасига ишга ўтмоқчи бўлса, кўкидан фалон сўм, оддий ходимларга эса ойликка қараб нарх белгиланди. Ишга ўтмоқчи бўлганлар кўкини кадрлар бўлими бошлиғига эмас, бошлиқнинг шофёрига беришарди. Ахир бошқа одамга ишониб бўлармиди? Инсоф билан айтганда бу "операция" ўзини оқлади. "Даромади"дан ҳокимга ҳам узатиб турди. Устидан ёзилаётган шикоятларни тинчитишга ҳоким ёрдам қилиб турарди-да.

Аммо кейинги пайтларда ҳокимнинг устидан юқори ташкилотларга шикоятлар кўпайиб кетди. Республикадан келган махсус комиссиянинг текшириш якуни бўйича ҳоким вазифасидан озод қилинди. Шундан сўнг Жобир Аминовичнинг суянчиғи қолмади. Бир пайтлар қўл остидаги аламзада ходимлар яна шикоятни бошлаб юборишди. Демак, янги ҳокимга ҳам мурожаат қилишган. Бўлмаса боя йиғилишда Жобир Аминовичнинг устидан қайта шикоят бор, кўп ноҳақ ишлар қилганга ўхшайсиз, марҳамат, хулосани ўзингиз чиқаринг...

Агар шикоятчиларнинг хатлари адолатли текширилса борми, у ёғини худо кўрсатмасин...нималар бўлишини Жобир Аминович яхши биларди. Қисқаси, юристлар тили билан айтганда жиноий ишлари фош этилса, бир умрга бош кўтара олмай қолиши турган гап. Буни обдон ўйлаб олиш керак.

Уйга келган заҳоти водопроводдан бир пиёла муздек сув ичди. Бироз ором олгандек бўлди.

- Кайфиятингиз йўқ, отаси, - деди хотини Ойзода чой олиб келиб, эрининг юзига разм соларкан.

- Йиғилишлар чарчатаяпти, йиғилишлар, - деди-ю, дастурхонда турган узумга қул чўзди.

- Ҳар доим йиғилишдан бу аҳволда келмасдингиз-ку?

- Бугунгиси бошқача бўлди. Мени роса пўстагимни қоқишди.

- Йўғ-е, нима учун?

- Сен билмайсанда, хотин, бу эринг кўп ноҳақ ишлар қилиб қўйганда.

- Тавба денг, ўзингизни намунча айбламасангиз...

- Хотин, танаси бошқа дард билмас, дейишади. Мен ўзимдан ўтганини ўзим биламан-да. Кўп гапирмай овқатингни олиб кел.

Қорни очиққан эканми, Жобир Аминович хотини олиб келган ошни охиригача еди. Пиёладаги чойни ҳўпларкан, бир қарорга келиши шарт эканлигини ўйлади. Энг қулай усули бу ўз хоҳиши билан ишдан кетиш. Шунда обрўси тўкилмайди, оиласига ҳам яхши бўлади. Бош омон бўлса, дўппи топилади.

Эртаси куни эрталаб Жобир Аминовичнинг аризаси ҳокимнинг столи устида турарди...

Йўлчи МУҲАММАДИЕВ.